



BUXORO VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI

## BUXORO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

2024- YIL  
YANVAR

2024- yilning yanvar oylarida Buxoro viloyatida jami **332,4** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2023-yilning yanvar oylariga nisbatan **118,7 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

### Norasmiy sektor


13,6

17,1

69,3

Yirik korxona va  
tashkilotlar

Kichik korxona  
va mikrofirmalar

**Yillar kesimida soni****Hududlar kesimida**

1 418

Bino va inshootlar  
qurish

484

Fuqarolik obyektlarini  
qurish

690

Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o’sishiga o’zining munosib hissasini qo’shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2023- yilning mos davri bilan solishtirganda o’sish sur’ati 86,4 foizni tashkil qildi.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda:

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 54,7 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 80,0 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 18,7 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 133,3 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 26,6 foiz ulushni va 82,1 foiz o’sish sur’atini tashkil etdi.

## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, birlikda

	Holatiga :		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
	01.02.2023- y.	01.02.2024- y.	
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>2 999</b>	<b>2 592</b>	<b>86,4</b>
<b>Buxoro shahri</b>	<b>978</b>	<b>826</b>	<b>84,5</b>
<b>Kogon shahri</b>	<b>134</b>	<b>105</b>	<b>78,4</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Olot</b>	<b>84</b>	<b>71</b>	<b>84,5</b>
<b>Buxoro</b>	<b>226</b>	<b>179</b>	<b>79,2</b>
<b>Vobkent</b>	<b>128</b>	<b>116</b>	<b>90,6</b>
<b>G'ijduvon</b>	<b>209</b>	<b>145</b>	<b>69,4</b>
<b>Kogon</b>	<b>146</b>	<b>146</b>	<b>100,0</b>
<b>Qorako'l</b>	<b>113</b>	<b>109</b>	<b>96,5</b>
<b>Qorovulbozor</b>	<b>59</b>	<b>54</b>	<b>91,5</b>
<b>Peshko'</b>	<b>181</b>	<b>167</b>	<b>92,3</b>
<b>Romitan</b>	<b>260</b>	<b>250</b>	<b>96,2</b>
<b>Jondor</b>	<b>236</b>	<b>210</b>	<b>89,0</b>
<b>Shofirkon</b>	<b>245</b>	<b>214</b>	<b>87,3</b>



**2024- yil 1- fevral holatiga ko‘ra  
Buxoro viloyatida  
faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish  
korxonalarini ulushi, % da**




Buxoro sh. (31,9)



Romitan t. (9,6)



Shofirkon t. (8,3)



## Qurilish ishlari 2024- yil yanvar uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	332,4	45,2	230,5	56,7
<b><i>shahar:</i></b>				
Buxoro sh.	82,6	3,8	66,7	12,1
Kogon sh.	24,1	19,5	2,7	1,9
<b><i>tuman:</i></b>				
Olot	17,5	3,2	11,3	3,0
Buxoro	18,6	-	13,8	4,8
Vobkent	12,5	-	8,8	3,7
Gijduvon	19,1	-	12,5	6,6
Kogon	8,8	0,9	4,7	3,2
Qorako'l	23,5	2,8	17,9	2,8
Qorovulbozor	20,1	13,7	4,4	2,0
Peshko'	12,6	-	8,3	4,3
Romitan	30,0	0,7	23,9	5,4
Jondor	51,2	-	47,5	3,7
Shofirkon	11,8	0,6	8,0	3,2




2024- yilning yanvar oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 202,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilning mos davriga nisbatan 127,0 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2023- yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,9 % punktga ko'payib, 13,6 % ni tashkil etdi.


# Qurilish ishlari

## 2024- yil yanvar uchun



**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Kogon shaxri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 81,2 % i yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,2 m.) Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 68,3 % i yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 79,8 %) ga to'g'ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2024- yilning yanvar oyida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 69,3 % i to‘g‘ri kelib, 2023- yilning yanvar oyi ko‘rsatkichiga nisbatan 1,3 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 121,1% ni tashkil etgan holda 230,5 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



69,3

2024-yil  
yanvar

68,0

2023- yil  
yanvar



**MA‘LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Jondor tumanida (47,5 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 92,8 %), Buxoro shahrida (66,7 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 80,8 %) va Romitan tumanida (23,9 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 79,6 %) ga to‘g‘ri keldi.

## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 17,1 % ni tashkil etdi yoki 56,7 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,7 % ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **20,1** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **312,3** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **6,0 %** va **94,0 %** ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2024- yil yanvar oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **44,5 %** i yoki **148,2** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**5,6 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **8,3** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **5,6 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **100,1** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **67,5 %** ni tashkil etdi.

**67,5 %**

**26,9 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **39,8** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **26,9 %** ni tashkil etdi.


## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	332,4	118,7	100,0
<i>shahar:</i>			
Buxoro sh.	82,6	117,7	24,9
Kogon sh.	24,1	3,1 m.	7,2
<i>tuman:</i>			
Olot	17,5	101,4	5,3
Buxoro	18,6	105,5	5,6
Vobkent	12,5	135,3	3,8
G'ijduvon	19,1	114,0	5,8
Kogon	8,8	109,5	2,6
Qorako'l	23,5	105,6	7,1
Qorovulbozor	20,1	100,9	6,0
Peshko'	12,6	122,2	3,8
Romitan	30,0	100,9	9,0
Jondor	51,2	128,3	15,4
Shofirkon	11,8	108,0	3,5



**Ma'lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da

5,6

2023- yil  
yanvar

1,8

64,6

29,8

70,1

28,1

2024- yil  
yanvar



Yirik qurilish  
tashkilotlari



Kichik korxona  
va mikrofirmalar



Norasmiy  
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 1,8 % ni tashkil etib, 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,8 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,5 % punktga ko'payib, 70,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2023- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,7 % punktga kamayib, 28,1 % ni tashkil etdi.

## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

- Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 31,8 % ni tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan 24,4 % punktga ko'paydi.
- Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 68,2 % (24,4 % punktga kamayish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari

2023- yil yanvar



Kichik korxona va mikrofirmalar




Norasmiy sektor

2024- yil yanvar



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,4 % punktga kamaydi va 32,1 % ni tashkil etdi. Qolgan 67,9 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,4 % punktga ko'paydi.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>332,4</b>	<b>202,2</b>	<b>77,8</b>	<b>52,4</b>
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	82,6	62,8	11,5	8,3
Kogon sh.	24,1	12,0	8,5	3,6
<i>tuman:</i>				
Olot	17,5	9,0	5,4	3,1
Buxoro	18,6	13,4	3,2	2,0
Vobkent	12,5	8,7	2,6	1,2
G'ijduvon	19,1	13,8	3,6	1,7
Kogon	8,8	3,5	3,5	1,8
Qorako'l	23,5	11,3	9,1	3,1
Qorovulbozor	20,1	3,6	2,7	13,8
Peshko'	12,6	6,2	3,8	2,6
Romitan	30,0	18,6	8,6	2,8
Jondor	51,2	33,8	10,2	7,2
Shofirkon	11,8	5,5	5,1	1,2



# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2024- yil yanvar



ulushi % da



- Bino va inshootlarni qurish
- Fuqarolik obyektlarini qurish
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

## Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2024- yil yanvar uchun

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	164,0	116,7
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	283,0	115,5
Kogon sh.	374,8	3,0 m.
<i>tuman:</i>		
Olot	169,0	99,9
Buxoro	105,2	103,6
Vobkent	84,7	132,9
G'ijduvon	59,9	112,1
Kogon	105,0	107,2
Qorako'l	137,7	104,2
Qorovulbozor	1 020,2	98,8
Peshko'	96,9	120,2
Romitan	200,2	99,2
Jondor	278,2	126,1
Shofirkon	63,6	106,5



**Hududlar kesimida aholi jon boshiga  
qurilish ishlari  
2024- yil yanvar uchun**



**Hududlar kesimida 2024- yil yanvar oyida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qorovulbozor tumani — 1 020,2 ming so'm (yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 98,8 %), undan keyin mos ravishda Kogon shahri – 374,8 ming so'm (yoki 3,0 m.), Buxoro shahri – 283,0 ming so'm (yoki 115,5 %), Jondor tumani – 278,2 ming so'm (yoki 126,1 %) Romitan tumani – 200,2 ming so'm (yoki 99,2 %) va egalladi.**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(65) 223-81-99**